



LYUDVIG VAN BETXOVEN VA UNING SIMFONIYADAGI O`RNI

Qurbanova Nozimabonu Nurbek qizi

Andijon Davlat Universiteti

Sport va San'at fakulteti, Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi 1-kurs talabasi.

el pochta: nozima.qurbanova2007@mail.ru

Annotatsiya : Mazkur maqolada klassik musiqa tarixining yirik namoyandalaridan biri Lyudvig van Betxovenning hayoti va ijodi, ayniqsa, uning simfoniya janridagi o'rni yoritiladi. Betxoven simfonik musiqa rivojiga ulkan hissa qo'shib, bu janrni g'oyaviy va emotsiyal jihatdan boyitgan. Uning to'qqiz simfoniyasi orqali musiqada inson ruhiyati, kurash, umid va g'alaba g'oyalari kuchli badiiy ifodaga ega bo'lgan. Maqolada simfoniya janrining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari va Betxoven ijodi bilan bog'liq holda taraqqiyoti tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar : Simfoniya janri, klassik musiqa, simfoniya inqilobi, 5-simfoniya, 9-simfoniya, eroika musiqa, taqdir zarbasi, musiqa va falsafa, vena klassik maktabi, orkestr asarlari tahlili, musiqa kelajagi.

Аннотация: В статье рассматривается жизнь и творчество Людвига ван Бетховена, одной из величайших фигур в истории классической музыки, особенно его роль в жанре симфонии. Бетховен внес огромный вклад в развитие симфонической музыки, обогатив этот жанр идейно и эмоционально. В его девяти симфониях идеи человеческого духа, борьбы, надежды и победы нашли мощное художественное выражение в музыке. В статье анализируются истоки, этапы становления и развития жанра симфонии во взаимосвязи с творчеством Бетховена.

Ключевые слова: Симфонический жанр, классическая музыка, симфоническая революция,



Симфония № 5, Симфония № 9, Героическая музыка, Удар судьбы, Музыка и философия, Венская классическая школа, анализ оркестровых произведений, будущее музыки.

Abstract: This article examines the life and work of Ludwig van Beethoven, one of the great figures in the history of classical music, especially his role in the symphony genre. Beethoven made a great contribution to the development of symphonic music, enriching this genre ideologically and emotionally. Through his nine symphonies, the ideas of the human spirit, struggle, hope and victory found strong artistic expression in music. The article analyzes the origin, stages of formation and development of the symphony genre in connection with Beethoven's work.

Keywords: Symphony genre, classical music, symphonic revolution, Symphony 5, Symphony 9, Eroica music, stroke of fate, music and philosophy, Viennese classical school, analysis of orchestral works, future of music

Lyudvig Van Betxoven(1770–1827) — klassik musiqa tarixining eng buyuk va eng inqilobiy bastakorlaridan biri sifatida tanilgan nemis musiqachisidir. Betxoven nafaqat o‘z davrining, balki butun musiqiy tarixning rivojiga katta hissa qo‘shtigan. Uning ijodi, xususan, simfoniya janriga kiritgan o‘zgarishlari musiqaning rivojlanishiga yangi bir yo‘l ochdi. Betxovenning hayoti juda murakkab va ba’zan og‘ir bo‘lgan. U yoshligidan musiqaga qiziqqan bo‘lib, o‘zining dastlabki ta’limini otasidan va boshqa o‘qituvchilardan olgan. Keyinchalik, Vena shahrida yashab, ijodiy faoliyatini rivojlantirgan. Vena o‘sha davrda musiqaning markazi bo‘lib, Betxoven o‘zining eng ulkan asarlarini shu yerda yaratgan. Betxoven nafaqat o‘zining musiqiy asarlari, balki uning shaxsiy kurashi va sog‘liqdagi qiyinchiliklari bilan ham mashhur. U 26 yoshida eshitish qobiliyatini yo‘qotishni boshladi, 40 yoshga kelib esa to‘liq kar bo‘ldi. Biroq, bu



unga ijodiy ishlardan to‘xtashga to‘sinqinlik qilmagan, aksincha u o‘zining eng mashhur asarlarini karlik holatida yaratdi.

Betxoven simfoniya janrida klassik musiqaning an’analalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning simfoniya janriga qo‘shtgan hissasi nafaqat musiqaning texnik aspektlarida, balki uning mazmuni va tuzilishida ham kutilmagan o‘zgarishlar yaratdi. Betxoven o‘zining simfoniylarida musiqaning yangi shakllarini va g‘oyaviy mazmunini kiritdi.

Betxoven simfoniya shaklini shunchaki musiqiy tuzilma sifatida qabul qilishni ortda qoldirdi. U simfoniya shaklini nafaqat formal musiqaviy ijro uchun, balki inson ruhiyatini, jamiyatdagi o‘zgarishlarni va falsafiy g‘oyalarni ifodalash vositasi sifatida ishlatdi.

3-simfoniya (Eroika, Op. 55) Betxovenning eng muhim inqilobiy asarlaridan biridir. U ushbu simfoniyada Napoleon Bonapartning yuksak idealist qiyofasini tasvirlash uchun qo‘llanilgan, lekin keyinchalik uning simfoniysi insonning erkinligi va tengligi g‘oyasini ilgari surishga aylandi. Bu simfoniya nafaqat musiqaviy jihatdan kuchli va murakkab edi, balki o‘z davrining ijtimoiy va siyosiy muhitiga javoban yozilgan.

5-simfoniya (Do minor, Op. 67) esa Betxovenning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, taqdir zarbasi deb ataladigan “qudratli” motiv bilan tanilgan. Bu asar dramatik kuchi va musiqaviy yondashuvi bilan o‘z zamonasi uchun juda katta yangilik edi. U orkestrning barcha imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalandi va janrda yangi ifoda vositalarini sinovdan o‘tkazdi.

9-simfoniya (Do minor, Op. 125), Betxovenning eng ulug‘vor asari bo‘lib, insoniyatning birligini va tinchlikka intilishini aks ettiradi. Ushbu simfoniya orqali Betxoven “Quvonch madhiyasi”ni yaratar ekan, musiqada gumanizm va birodarlikni ifodaladi. Bu asar, Betxovenning simfoniya shaklini faqat musiqaviy tuzilma sifatida emas, balki g‘oyaviy kuchga aylantirishdagi yuksakligini namoyish etdi.



Betxovenning simfoniya janridagi boshqa yirik yangiligi orkestrni kengaytirish va uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish edi. U yangi asboblar qo‘sib, orkestrni ancha kuchaytirdi, shuningdek, uning dinamikasini va ranglarini boyitdi. Bu kengaytirilgan orkestr tuzilmasi Betxovenning simfoniyalarining muhim bir jihatni hisoblanadi.

Betxovenning vokal asarlari:

Qo‘shiqlar (Lieder)

Betxovenning vokal lirikasi Shubertnikiga qaraganda kamroq bo‘lsa-da, u ham muhim ijod qilgan. Ba’zilar quyidagilardir:

“Adelaide” (1795) – mashhur romantik qo‘sish bo‘lib, Betxovenning eng nozik va poetik ishlanmalaridan biridir.

“An die ferne Geliebte” (1816) – bu birinchi qo‘sish sikli hisoblanadi.

Shubertdan oldin yozilgan va butun tsikl bir musiqiy g‘oya atrofida birlashgan.

Opera

“Fidelio” – Betxovenning yagona operasi, unda erkinlik, inson qadr-qimmati va fidoyilik kabi g‘oyalar ifodalananadi.

Kantatalar va xor asarlari

“Missa Solemnis” – katta hajmli diniy asar.

9-simfoniya finali – “Ode to Joy” (Xursandlik madhiyasi) – vokal va orkestr uyg‘unligida Betxoven musiqasining eng yuksak cho‘qqisi.

Betxoven qo‘shiqlarida:

Kuchli intonatsiyaviy aniqlik bilan ajralib turadi, dramatik kuch va psixologik holatlar ifodasi chuqur, fortepiano hamisha mustaqil obraz sifatida qatnashadi, oddiy lirikadan ko‘ra epik va falsafiy mazmun kuchli.

Betxovenn va simfoniya janrining evolyutsiyasi

Betxoven simfoniya janrini yangi bosqichga olib chiqdi. Uning asarlari, masalan, 6-simfoniya (Pastoral) tabiat va insonning unga bo‘lgan munosabatini



ifodalashda qo'llanilgan. Bu Betxovenning simfoniya janrida tabiatni tasvirlash va musiqa orqali yangi mazmunlarni kiritishdagi ishtirokini ko'rsatadi.

Betxoven simfoniya janrini faqat musiqiy shakl sifatida emas, balki insoniyatning ruhiy, ijtimoiy va falsafiy holatlarini ifodalovchi san'at shakliga aylantirdi. Uning simfoniyalari nafaqat musiqiy texnikaning yuqori darajada rivojlanishini namoyish etadi, balki ular g'oyaviy va falsafiy mazmunlar bilan to'ldirilgan asarlardir. Betxoven simfoniya janrini yangilash orqali musiqaning kelajagini o'zgartirgan va uni yangi bir bosqichga olib chiqqan.

Foydalilanilgan adabiyotlar

-
1. Grove, D. (2001). Grove's Dictionary of Music and Musicians (5th edition). London: Macmillan.
 2. Kerman, J. (1994). Listen (5th edition). New York: Bedford/St. Martin's.
 3. Ludwig van Beethoven: A Guide to His Life and Works by Michael R. Boyd (2013).
 4. Beethoven, L. van (2000). Symphonies No. 1-9. New York: Dover Publications.
 5. Solomon, M. (1998). Beethoven. New York: Schirmer Books.
 6. Tovey, D. F. (2012). Beethoven: The Man and the Music. London: Faber & Faber.
 7. Beethoven, L. van (2010). The Complete Symphonies (CD). Deutsche Grammophon.